



O‘ZBEKISTONDA GENDER TENGLIGINING SIYOSIY- HUQUQIY JIHATLARI

Davlatova Shodiyona Zohid qizi

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti “Tashqi siyosat va xalqaro
iqtisodiy munosabatlar instituti.” “Xalqaro munosabatlar” yo‘nalishi talabasi.*

E-mail-davlatovashodiyona@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada bugungi kunning dolzarb mavzusi bo‘lgan gender tenglik, globallashuv jarayonlarida gender masalasida olib borilayotgan islohotlar va qonunchilikdagi yangiliklar keltirib o‘tilgan. Bundan tashqari, ayollarga bo‘layotgan tazyiq va ularning oldini olish bo‘yicha qonun va qarorlar to‘grisida to‘xtalib o‘tilgan.*

Kalit so‘zlar: *Gender, tazyiq, kamsitish, BMT, “Ayollar konvensiyasi”, Konstitutsiya, normativ-huquqiy hujjatlar*

Ma’lumki erkaklar va ayollar teng huquqliligini ta’minlash global ahamiyatga molik masala sifatida bir necha yillardan beri butun dunyo diqqat markazida bo‘lib kelmoqda. Shu jumladan, O‘zbekistonda ham oxirgi yillar davomida katta ahamiyat kasb etmoqda. Bugun yuqori malakali ayol kadrlar jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy hayotida faol ishtirokiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu esa o‘z navbatida mamlakatda iqtisodiy raqobatdoshlikning oshishiga va uning iqtisodiy taraqqiyotiga ijobiy omil bo‘lib xizmat qiladi. Shunga qaramasdan, gender tengligi sohasidagi eng muammoli nuqtalardan biri – bu ijtimoiylashuv jarayoni bo‘lib qolmoqda. Mazkur jarayon jamiyatning turli ijtimoiy qatlamlari, shuningdek, oila, ta’lim, din, siyosat kabi mehnat munosabatlarining o‘zaro uzviy bog‘liqligida kechadi. Mana shu zanjirdagi uzilishlar katta muammolarga sabab bo‘ladi. Hozirgi davr hayoti shiddat bilan o‘zgarayotgan vaqtda jamiyat ham taraqqiy etar ekan, insonlar ham zamon bilan hamnafas bo‘lishga harakat qilashadi. Endilikda ayollar faqat uy-ro‘zg‘or ishlarida band bo‘lishi kerak, degan fikrlar gender tengligiga to‘sqinlik qiladi. Bu esa rivojlanishning eng o‘tkir muammolaridan biri hisoblangan tenglikka erishish, yani jamiyatda ham, oilada ham erkak va ayol munosbatlarini normal tusda ketishini ta’minlamaydi. Ming afsuski, xotin-qizlar ko‘pincha rivojlanish jarayonidan chetda qoladi va hatto unda ishtirok etgan taqdirda ham juda katta qiyinchiliklar, yo‘qotishlar (bunda ko‘pgina hollarda oilaviy nizolar, ajrimlar) evaziga erishadi Yangi Konstitutsiya loyihasida ayni shu





masalalar yorqin ifodalangan. Jumladan, Asosiy qonunning 58-moddasida “Xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlidirlar. Davlat xotin-qizlar va erkaklarga jamiyat hamda davlat ishlarini boshqarishda, shuningdek jamiyat va davlat hayotining boshqa sohalarida teng huquq va imkoniyatlarni ta’minlaydi”, deb yozilgan. Bunga qo’shimcha tarzda mazkur holatlarning oldini olishda 2019-yil 2-sentabrda qabul qilingan “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to’g’risida”, xotin-qizlarning jamiyatdagi o’rniga qaratilgan huquqiy himoya va huquqiy kafolat sifatida ma’qullaydi. Ayniqsa, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 5-may 2021-yilgagi PQ-5020-sonli “Xotin-qizlarni qo’llab-quvvatlash ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta’minlash tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlar to’g’risida”gi qarori xotin-qizlarning yanada erkinligini va o’ziga bo’lgan ishonchini oshirdi. Jumladan, magistraturada o’qiyotgan barcha qizlarning kontrakt pullarini to’liq byudjetdan qoplab berish uchun har yili 200 milliard so’m mablag’ yo’naltirilayotgani, doktorantura yo’nalishida xotin-qizlar uchun, har yili kamida 300 tadan maqsadli kvota ajratilgani ularga bo’lgan e’tiborni ifodasi

Ta’kidlash joiz, Yangi O’zbekiston taraqqiyoti strategiyasida jamiyatda xotin-qizlar mavqeini oshirish, ularning huquqi hamda imkoniyatini qadriyat sifatida himoya qilish, mamlakatda gender tenglikni ta’minlash davlat siyosatining ustuvor yo’nalishlaridan biri sifatida e’tirof etilgan. Zero, mamlakatimiz aholisining, qariyb, yarmi, ya’ni 49.7 foizini ayollar tashkil etib, ular jamiyatning barcha jabhalarida muntazam, faol ishtirok etib kelmoqda.

Erkaklar va ayollar o’rtasida teng huquq va teng imkoniyatlarni ta’minlash masalalari quyidagi asosiy xalqaro hujjatlarda o’z aksini topgan, bular:– Umumjahon inson huquqlari Deklaratsiyasi, “Xotin-qizlarga nisbatan zo’ravonlikning barcha shakllariga barham berish to’g’risida”gi Konvensiya, Ming yillik rivojlanish maqsadlari va boshqalar. BMTga a’zo-davlatlar uchun ayollar va erkaklar tengligini ta’minlashga doir milliy majburiyatlarni to’liq bajarish Ming yillik rivojlanish maqsadlariga erishish va BMT tamoyillarini qo’llab-quvvatlashga munosib hissa qo’shish demakdir. BMT bosh Assambleyasining 1967 yil 7 noyabrda qabul qilgan ayollarga nisbatan kamsitishlarni bartaraf etish Butunjahon deklaratsiyasining 1-moddasida “Ayollarga nisbatan kamsitish, ularning erkaklar bilan teng huquqliligini rad etish yoki cheklashga olib keladigan holatlar qayd etilsa o’z mohiyatiga ko’ra adolatsizlik bo’lib, inson qadr-qimmatiga qarshi jinoyat sodir etilgan hisoblanadi”, deb ta’kidlangan





ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. “O`zbekiston Respublikasi Yangi Konstitutsiyasi”, O`zbekiston, Toshkent, 2023
2. “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to`grisida”gi (o`RQ-562-son) va “Xotin-qizlarni tazyid va zo`ravonlikdan himoya qilish to`g`risida”gi (o`RQ-561-son) O`zbekiston Respublikasi Qonunlari.02.09.2029 yil.
3. O`ZBEKISTONDA GENDER TENGLIKNING HUQUQIY MASALALARI. Akbarova, S. (2024). Евразийский журнал академических исследований, 4(5 (Special Issue), 104–108

